

**SHAXSLARNI BEDARAK YO'QOLISHINING OLDINI OLISH CHORA
TADBIRLARI**

Sultanboyev Ali Zokirjon o`g`li

IIV Akademiyasi 3-bosqich 301-guruh kursanti

Shokirov Sadreddin Abdushoshim o`g`li

IIV Akademiyasi 3-bosqich 304-guruh kursanti

KIRISH

Voqealar, axborotlar, umuman insoniyat ongi, tafakkuri, uning dunyoqarashi shiddat bilan rivoj topib borayotgan va kompyuter texnologiyalari, axborot texnikalari takomillashib kelayotgan bu davrda, albatta, fuqarolarning huquqlariga, erkinliklariga va qonuniy manfaatlariga nisbatan bo`lishi mumkin bo`lgan zulm va qasdning xavfi ham zamon bilan hamnafas rivojlanib bormoqda. Shunday ekan insoniyatga nisbatan bo`layotgan turli xil huquqbazarliklar, xususan, shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlarning sodir etilish usuli va mexanizmi o`zgarib bormoqda. Binobarin, shaxslarning bedarak yo`qolib qolish holatlarining ham tub negizida qandaydir jismoniy yoki ruhiy tazyiq va bosim, shuningdek, shaxsdagi psixofiziologik o`zgarishlar yohud sodir etilgan huquqbazarlik holatlari mavjud bo`ladi. Shaxslarning bedarak yo`qolishlarini oldini olish va ularni qidirib topish bo`yicha sa'y-harakatlar IIO ning Tezkor bo`linmalari tomonidan tun-u kun amalga oshiriladi. Jinoiy nuqtai nazardan, biron bir sababsiz to'satdan g`oyib bo`lgan shaxsga nisbatan Ichki ishlar organlariga ariza yoki xabar kelib tushsa hamda u jinoyat yohud baxtsiz hodisa qurboni bo`lganligi to`g`risida asoslar bo`la turib, uning o`zi bo`lgan joyi noma'lum bo`lsa, ushbu shaxs-bedarak yo`qolgan shaxs hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Fuqarolik-huquqiy nuqtai-nazardan fuqaroni bedarak yo`qolgan deb topish quyidagicha:

Agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumotlar bo`lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo`qolgan deb topishi mumkin. Yo`qolgan shaxs to`g`risida oxirgi ma'lumotlar olingan kunni aniqlash mumkin bo`lmasa, bedarak yo`qolgan deb hisoblash muddati yo`qolgan shaxs to`g`risida oxirgi ma'lumotlar olingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan, bu oyni belgilash mumkin bo`lmagan taqdirda esa keyingi yilning birinchi yanvaridan boshlanadi.

Bedarak yo`qolgan deb topilgan fuqaroning mol-mulkini doimiy suratda boshqarib turish zarur bo`lsa, bu mol-mulk sudning qaroriga muvofiq vasiylilik va homiylik organi tomonidan belgilanadigan va ushbu organ bilan tuziladigan ishonchli boshqaruvi to`g`risidagi shartnoma asosida ish olib boradigan shaxsga topshiriladi. Ushbu mol-mulkdan bedarak yo`qolgan shaxs qonunga muvofiq boqishi kerak bo`lgan fuqarolarga ta'minot beriladi va uning soliqlar va boshqa majburiyatlar bo`yicha

qarzlari to'lanadi. Vasiylik va homiylik organi yo'qolgan fuqaroning qayerdaligi to'g'risida ma'lumot olingan kundan boshlab bir yil o'tganga qadar ham uning mol-mulkini muhofaza qiluvchi shaxsni belgilashi mumkin.

Shaxslarning bedarak yo'qolib qolmasligi hamda jinoyat qurbaniga aylanmasligi uchun Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, IIO doimiy ravishda jamoatchilik bilan hamkorlikda, shaxslarning bedarak yo'qolishini oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirib kelishmoqda.

Shaxslarning bedarak yo'qolishini oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar deganda- turli xil sabablarga ko'ra to'satdan shaxslarning g'oyib bo'lib qolishining sabablari va shart-sharoitlarini aniqlab, ularni bartaraf etish yuzasidan qidiruv organlari tomonidan belgilangan qidiruv tadbiralarini o'tkazish, profilaktik choralarни qo'llash, tegishli hisob hujjatlarini yuritish, shuningdek, yo'qolib qolishga moyil shaxslar ro'yhatini shakllantirish hamda nazorat qilish bo'yicha mas'ul xodimlarga ko'rsatmalar berish, yo'qolib qolishga moyil shaxslar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazish va ularni ogohlantirish, ommaviy axborot vositalari orqali profilaktik mazmundagi e'lonlar berishga qaratilgan kompleks faoliyatga aytildi.

Shaxslarning bedarak yo'qolishini oldini olish bo'yicha hamkorlik quyidagicha:

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik: mahallalar kesimida bedarak yo'qolishga, uyidan chiqib ketishga, maktab-internatidan qochib ketishga moyil shaxslar bilan profilaktik suhbatlar qilish orqali;

Ta'lim muassasalari bilan hamkorlik: maktab-internatlari yoki o'rta maktab hamda maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ahloqi o'g'ir, oilasida muammosi bor, qochib ketishga moyil o'quvchilar bilan ota-onasi ishtirokidagi psixologik suhbatlar o'tkazish orqali;

Bolalar uyi va Qariyalar uylari bilan hamkorlik: bolalar uyi tarbiyalanuvchilari orasidagi yoki qariyalar uyidagi qochib ketishga moyil bo'lgan shaxslar bilan psixolog ishtirokidagi profilaktik suhbatlar o'tkazish orqali;

Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik: jamoat joylari, odamlar gavjum bo'ladigan boshqa joylar, bozorlar, istirohat bog'lari va hiyobon, muzeylardagi aholiga yonidagi yosh farzandlariga e'tiborli bo'lishlari va ularni yolg'iz qoldirmasligi bo'yicha profilaktik tavsiyalarni berish va radioeshittirishlar qilish orqali;

Tibbiyot muassasalari bilan hamkorlik: tibbiyot muassasalarida davolanayotgan shaxslar orasida qochib ketishga moyil shaxslarni ajratib, alohida nazoratga olgan holda ular bilan profilaktik suhbatlar o'tkazish orqali tashkil etiladi.

XULOSA

Shuningdek, fuqarolar shuni chuqur bilib olishlari lozimki, shaxsning bedarak yo'qolganlik holatiga oddiycha nazar bilan qaramasligi kerak. Chunki shaxsning bedarak yo'qolish holatining negizada shaxs qandaydir bir jinoiy hodisa qurbaniga aylanib qolgan bo'lishi mumkinligini chuqur his etilmog'imiz darkor. Shunday ekan fuqarolardan "DIQQAT QIDIRUV" e'lonlariga yuzaki qaramasdan, balki, sinchiklab

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-5 (30-May)**

o'rganib, bu haqda biror nimaga ega bo'lgan taqdirda, darhol IIO ga murojaat qilishlari zarur.